

# Zarafshon

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

2024-yil 14-noyabr, payshanba, 131 (24.008)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz


**KUN HIKMATI**

Vijdoni qiynalmagan odam vatanparvar bo‘lolmaydi




# HAMMA BILAN BIRGA

## TENG VA DO‘STONA MUNOSABATLAR O‘RNATILADI

**Davlatimiz rahbarining keyingi kunlardagi xalqaro tadbirlarda ishtiroki ayni shunday xulosalar beradi. Ahamiyatlisi, Prezident Ar-Riyod va Bokudagi ikki yirik tadbirda shunchaki ishtirok etmadi. Ularda chiqish qildi, ma’ruzalarida umumiy fikrlar emas, mavjud muammolar yechimi bo‘yicha aniq takliflarni o‘rtaga tashladi.**

Albatta, bugun O‘zbekistonda davlat siyosati ochiqlik va oshkoralik tamoyili asosida amalga oshirilayotgani barchamizga ayon. Ayniqsa, yon qo‘shnilar bilan do‘stona aloqalar yangi bosqichga ko‘tarilib bormoqda. Mavjud voqelik endi o‘z qobig‘imizga o‘ralib qolmasligimizni ko‘rsatmoqda.

Bu sa’y-harakatlar O‘zbekistonning nafaqat mintaqa, balki xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini yuksaltirayotgani ham ayni haqiqat.

**AVVALO, TASHKILOT YOKI YIG‘IN HAQIDA**

COP (Conference of the Parties) - Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha doiraviy konvensiyasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan har yili o‘tkaziladigan yig‘ilish bo‘lib, unda iqlim o‘zgarishi bilan qanday kurashish va uning oqibatlariga qanday moslashish kerakligi muhokama qilinadi.

Tomonlar 1992-yilda BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha doiraviy konvensiyasini (UNFCCC) imzolagan davlatlardir. COPning birinchi konferensiyasi 1995-yil mart oyida Berlinda o‘tkazilgan.

BMT xalqaro iqlim konferensiyasi 2023-yilda dekabr oyida Dubayda bo‘lib o‘tgandi. Dunyoning 140 dan ortiq davlat va hukumat rahbarlari qatnashgan ushbu tadbirda Shavkat Mirziyoyev milliy, mintaqaviy va global darajada iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashni kuchaytirish yuzasidan qator taklif va tashabbuslarni ilgari surgandi.

**TAKLIF O‘Z YO‘LIGA, IJROSI-CHI?**

Har qanday kishida daf’atan shunday savol tug‘ilishi tabiiy. Bu savolga javob berish uchun uzoqqa borish shart emas. Yuqorida ta’kidlanganidek, COP (Conference of the Parties) - Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha doiraviy konvensiyasining o‘tgan galgi konferensiyasida berilgan taklif bunga yaqqol misol bo‘ladi.

Xususan, davlatimiz rahbari unda O‘zbekiston iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash bo‘yicha umumbashariy g‘oyalarga doimo sodiqligini tasdiqlab, kelgusi yil Samarqand xalqaro iqlim forumini o‘tkazish va Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy yondashuvlari o‘z ifodasini topgan BMT Bosh Assambleyasining alohida rezolyutsiyasini qabul qilishni qo‘llab-quvvatlashga chaqirgandi.

O‘tgan yil 19-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasi «Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo‘lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash» rezolyutsiyasini qabul qildi.

Hujjat matnida O‘zbekiston Prezidentining qator tashabbuslari, jumladan, Markaziy Osiyo uchun «yashil» kun tartibi» va uning mintaqada barqaror rivojlanishga ko‘maklashishdagi roli alohida qayd etilgan.

BMTga a’zo davlatlar O‘zbekistonning Xalqaro iqlim forumini 2024-yilda Samarqand shahrida o‘tkazish tashabbusini ham olqishlash bilan birga O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilgan BMTning Orolbo‘yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik trast jamg‘armasi faoliyatini kuchaytirish zarurligini alohida ta’kidlagan. Shu bois xalqaro hamjamiyatga ushbu jamg‘armani faol qo‘llab-quvvatlashni davom ettirish to‘g‘risida murojaat yo‘llangan.

Ko‘hna va hamisha navqiron kentimizda o‘tkazilgan Xalqaro iqlim forumida 200 nafardan ortiq xalqaro, mintaqaviy, xorijiy va milliy tashkilotlar vakillari offlayn va onlayn formatda ishtirok etdi. Forum yakunida “Iqlim o‘zgarishi sharoitida inson huquqlarini global himoya qilish: barqaror kelajak uchun majburiyatlar va harakatlar to‘g‘risida Samarqand deklaratsiyasi” ishlab chiqildi.

**BU GALGI TAKLIFLAR QANAQA?**

Sammitning bu galgi yig‘inida davlatimiz rahbari beshta taklifni ilgari surdi. Aslida, bu takliflarning har biri nafaqat mintaqamiz, ayni paytda sizu bizning ham hayotimizda muhim rol o‘ynashini anglash qiyin emas.

Misol uchun, “rivojlanayotgan mamlakatlarga iqlim xatarlarini aniqlash uchun yetakchi davlatlar va xalqaro institutlarning texnik ko‘magini kengaytirish dolzarb”ligini ta’kidlagan davlatimiz rahbari “bu borada Iqlim tufayli yo‘qotish va zararlarni baholash bo‘yicha xalqaro markaz ta’sis etish”ni taklif qildi.

Ayni damda faqat Orol tufayli qancha yo‘qotish va zararga kirayotganimizni mustaqil baholash imkonimiz yo‘qligi aniq. Shuning o‘ziyoq birinchi taklifning ahamiyatini ko‘rsatib turibdi. Qolaversa, Prezident o‘z ma’ruzasida Daryo ekotizimlarining butunligi va ekologik xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha majburiyatlar to‘g‘risidagi deklaratsiya ishlab chiqishni taklif qildi. BMT shafeligida bo‘ladigan bunday hujjat yil sayin suv tanqisligi kuchayib borayotgan mintaqamizda vaziyatni o‘nglash uchun muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Keyingi takliflar bevosita davlatimizda amalga oshirilishi Prezidentimizning xalqimiz uchun qanchalik kuyunchaklik qilayotganiga yaqqol misol, deyish mumkin. Zotan, o‘simliklarning iqlim o‘zgarishlariga chidamliligini oshirish uchun Genetik resurslarning mintaqaviy bankini ishga tushirish, dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan davlatlar uchun yurtimizda Birlashgan Millatlar Tashkilotining innovatsion agrosanoat xabini yaratish rejalari bugun juda muhim.

Oddiy ko‘z bilan qaralganda ham bu qo‘shimcha ish o‘rni, yangi imkoniyatlar ekanligini tushunib olish qiyin emas.

Keyingi takliflarda xalqaro hamjamiyat yana O‘zbekistonga taklif qilindi, yana e’tiborlarini mintaqaga qaratishlari uchun “taklifnoma” berildi. Chunki iqlim o‘zgarishlaridan zarar ko‘rayotgan megapolis va shaharlarning barqaror rivojlanishi bo‘yicha ilg‘or bilim va amaliyotlar transferi uchun Jahon iqlim poytaxtlari alyansini tashkil etish va uning birinchi forumini Toshkentda o‘tkazish taklif qilindi.

Bundan tashqari, “Kelgusi yili 15-may – Xalqaro iqlim kunida Orolbo‘yi mintaqasida o‘tkaziladigan Raqamli “yashil” tashabbuslar global yoshlar festivalida davlatlaringiz vakillarini kutib qolamiz”, dedi davlatimiz rahbari.

**AMALIY NATIJALAR BORMI?**

Istalgan odam buni o‘ylab ko‘rishi mumkin. Chunki javoblar ravshan, uni oddiy ko‘zda ham ilg‘ash mumkin.

Misol uchun, 2018-2022-yillar davomida Orol dengizining qurigan tubida 1,7 million gektar o‘rmonzorlar yaratildi. Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, Orolbo‘yida bioxilma-xillikni saqlash uchun 3,5 million gektardan ortiq maydonda tabiat parklari, qo‘riqxonalar va davlat himoya hududlari barpo etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati aholisini markazlashgan tarzda ichimlik suvi bilan ta’minlash holati ancha yaxshilandi.

O‘zbekiston 2030-yilgacha havoga issiqxona gazlari chiqarilishini 35 foizga kamaytirishni reja qilgan. Davlatimiz rahbari «Bu majburiyatni 2050-yilga qadar yanada kengaytirishga tayyor» ekanligini bildirdi.

Ta’kidlanganidek, elektromobil va “yashil” vodorod klasterlari, quyosh va shamol generatsiya xablari yaratilyapti. “Yashil makon” dasturi doirasida ko‘kalamzor hududlar keskin ko‘paytirilmoqda.

Yana bir muhim masala - “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish Yangi O‘zbekistonda ustuvor strategik vazifa sifatida qaralyapti. Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha doiraviy konvensiyasida ma’ruza qilgan davlatimiz rahbari “Shu kunlari Yevropaga “yashil energiya” yetkazish bo‘yicha ko‘p tomonlama bitimni imzolaymiz”, dedi.

Darvoqe, Ozarbayjonga tashrif davomida Prezidentimiz qator Yevropa davlatlari rahbarlari, moliya institutlari yetakchilari bilan uchrashib, amaliy hamkorlik masalalarini muhokama qildi. Xususan, Yashil iqlim fondi ijrochi direktori Mafalda Duerteni qabul qildi.

Fond bilan qo‘shma loyihalar portfeli 160 million dollarni tashkil etadi. Bundan tashqari, 5 milliard dollarlik ikkita mintaqaviy va 500 million dollarlik uchta milliy loyiha ishlab chiqilmoqda.

**ISLOM OLAMIDA TINCHLIK O‘RNATISH UCHUN**

O‘tayotgan hafta davomida Prezidentimiz bu boradagi davlatimiz pozitsiyasini yana bir ifodalab berdi, deyish mumkin. Musulmon dunyosi haqida gap ketganda, birgina afg‘on diyorida osuda hayotni yo‘lga qo‘yish uchun qilinayotgan sa’y-harakatlarni eslash o‘rinli.

Prezidentimiz Bokudagi sammitdan avvalroq o‘tkazilgan Falastin muammosiga bag‘ishlangan navbatdan tashqari arab-islom sammitida ham nutq so‘zlab, 2023-yili Ar-Riyod shahridagi tarixiy yig‘ilishdan keyin o‘tgan vaqt mobaynida ushbu adolatsiz va qonli urush ko‘lami yanada kengayganini afsus bilan qayd etdi.

“Eng yomoni, hammamiz guvoh bo‘layotganimizdek, ushbu fojiaga nisbatan xalqaro maydonda ikki xil standartlar asosida yondashilmoqda. Bu esa urushning keng yoyilib ketish ehtimolini keskin oshirmoqda, xalqaro xavfsizlikka jiddiy rahna solmoqda», dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz o‘z nutqida urushdan jabr ko‘rgan falastinlik bolalar va ayollarni O‘zbekiston o‘z klinikalarida bepul davolashga tayyor ekanini aytdi. Falastin xalqiga amaliy yordam ko‘rsatish masalalarini kelgusi yili Samarqandda o‘tadigan “Ko‘rfaz arab davlatlari - Markaziy Osiyo” sammitida ham muhokama qilish niyatini bildirdi.

Daraqiqat, islom olami bilan hamkorlik ham bu bilan kifoyalanib qolmaydi. Zotan, davlatimiz rahbari Bokudagi sammit doirasida Islom dunyosi ta’lim, fan va madaniyat tashkiloti (ICESCO) bosh direktori Salim al-Malikni qabul qilar ekan, amaliy hamkorlikni kengaytirish va qo‘shma gumanitar loyihalarni ilgari surish masalalari ko‘rib chiqildi.

**Y.MARQAYEV tayyorladi.**

*Kun mavzusi*

# Vazir talaba-yoshlar bilan uchrashdi

**Samarqand davlat universitetida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo‘ng‘irotboy Sharipovning viloyatdagi oliy ta’lim muassasalari yoshlari bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Unda oliy o‘quv yurtlari rektorlari, professor-o‘qituvchilar, talabalar va magistrantlar ishtirok etdi.**




Uchrashuvda Samarqand davlat universitetining filologiya fakulteti magistranti Feruza Maxammatova xorijiy grantlar va stajirovkalarni ko‘paytirishni, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi Rayhona Anarboyeva qizlar o‘rtasida “To‘maris izdoshlari” va yigitlar o‘rtasida “Temurbeklar” harbiy tanlovlari loyihasini tashkil etish taklifini berdi.

Loyiha vazir tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, tajriba sifatida birinchi marta Samarqandda tashkil etilishi ma’lum qilindi. Shuningdek, vazir yoshlarning ishga joylashish, innovatsion loyihalar, rivojlangan mamlakatlar texnologiyalarini yurtimizda joriy qilish, ta’lim jarayoniga yo‘naltirish borasidagi takliflarini ham eshitdi.

Vazir Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti va Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida yoshlar bilan uchrashdi.

# Rossiya turizm sohasi vakillari Samarqandda

**«Ipak yo‘li» turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tasarrufidagi Turizm akademiyasida viloyat turizm boshqarmasi mas’ullari, turagentlar, gidlar hamda rossiyalik turizm sohasi vakillari ishtirokida uchrashuv bo‘lib o‘tdi.**



Unda xalqaro turizmni rivojlantirish istiqbollari, Samarqand va Rossiyaning Samara, Moskva, Rostov viloyatlari bilan sayyohlik sohasida aloqalarni mustahkamlash, hamkorlikdagi loyihalar muhokama qilindi.

- Uchrashuvdan ko‘zlangan asosiy maqsad - turizmning yangi yo‘nalishlarini joriy etish va rivojlantirish, - deydi viloyat turizm boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Dilshod Narziqulov. – Jumladan, viloyatimizda ekoturizm, mototurizm va tibbiyot turizmini yangi bosqichga olib chiqish va turizm imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida rossiyalik hamkorlarimiz bilan yo‘l xaritalari va chora-tadbirlar ishlab chiqish borasida kelishib oldik.

- Samarqandga ilk bor 2018-yilda kelgan edim, - deydi Rossiyaning Samara viloyati dumasi, sanoat, tadbirkorlik, savdo, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari qo‘mitasi raisining o‘rinbosari Roman Balter. – Keyingi besh yilda bu yerda amalga oshirilgan o‘zgarishlar salmoqli. Samarqand – tarixiy shahar va O‘zbekistonning turizm poytaxti. Aynan shuning uchun ham biz samarqandlik turizm sohasi vakillari va tadbirkorlar bilan hamkorlik qilib, sohada kadrlar tayyorlash, turizmning yangi yo‘nalishlarini rivojlantirishni maqsad qilganmiz.

Tadbirda Samarqandning turizm salohiyati taqdimoti o‘tkazildi.




Bugun tog‘oldi va tog‘li hududlarda vaqti-vaqti yog‘ingarchiliklar (yomg‘ir, qor) bo‘ladi. Ayrim joylarda tuman tushishi mumkin. Harorat **kechasi 2 daraja sovuq, 3 daraja iliq, kunduzi 5-10 daraja iliq** bo‘ladi.

**15-17-noyabr** kunlari havo o‘zgaruvchan bo‘lib, yog‘ingarchilik kuzatilmaydi. **Kechasi 0-5 daraja**ga **iliq**, ba’zi hududlarda **2 daraja sovuq, kunduzi 8-15 daraja**gacha iliq havo hukmronlik qiladi.

**Samarqand gidrometeorologiya boshqarmasi.**

*Prezident farmoniga ko‘ra*

**Aksariyat hollarda tarixiy obida, muzey va yodgorliklarga kirish uchun yaratilayotgan qulaylik, imtiyoz va qabul qilingan yangi qonun hamda farmonlarni bilmaslik natijasida fuqarolarning madaniy meros obidalariga pul to‘lab kirayotgani yoki ota-bobolarimiz qurdirgan tarixiy obyektlarga kirish nega pullik degan holatlarni uchratamiz.**

# 18 yoshgacha bo‘lgan fuqarolarning madaniy meros obyektlariga bepul kirishi belgilangan. Ammo...



Mamlakatimizda qabul qilingan tegishli qaror va qonunlarga ko‘ra, mahalliy fuqarolar uchun yosh toifasida madaniy meros inshootlariga to‘lov orqali kirish va ayrim sana hamda dasturlar doirasida imtiyoz bilan bepul kirish belgilangan. Prezidentimizning 2023-yil 8-maydagi “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, xalqning boy madaniy merosidan faxrlanish, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish maqsadida 2023-yil 1-sentabrdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarning madaniy meros obyektlariga to‘lovsiz kiritilishini joriy etish belgilangan. Ushbu tartib amaldagi Konstitutsiyamizning 78-moddasida belgilangan.

Ammo 18 yoshgacha bo‘lgan fuqarolar hozir ham tarixiy obidalarga kirish uchun pul to‘lamoqda. Xo‘sh, madaniy meros obyektlari mas’ullari nega Prezident farmoniga amal qilmayapti yoki tizim haligacha eski qaror va qonunlar asosida ishlayaptimi? Bunga aniqlik kiritish maqsadida viloyatimizdagi madaniy meros obyektlari mas’ullariga murojaat qildik.

Ta’kidlanishicha, tarixiy obidalarga kirish uchun beriladigan elektron biletlar narxi 2023-yilda Madaniy meros agentligi tomonidan tasdiqlangan bo‘lib, yosh bolalar uchun 5 ming so‘m, kattalar uchun 10 ming so‘m etib belgilangan. Joriy yilning 30-avgust kuni Madaniy meros agentligi mas’uli ishtirokida o‘tkazilgan brifingda yuqoridagi farmonga asosan, obyektlarga bepul kirish to‘g‘risida shunday ma’lumot berilgan:

“Respublika fuqarosi hisoblangan va 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar har yilning 2-8-sentabr kunlari o‘tkaziladigan “Muzeylar haftaligi” doirasida, har oyning birinchi yakshanbasida uyushtiriladigan “Ochiq eshiklar kuni” doirasida hamda haftaning har seshanba va juma kunlari madaniyat muassasalariga bepul kiritiladi. Bunda tashrif buyuruvchi 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar tegishli obyektlar kassasiga shaxsini tasdiqlovchi pasport yoki ID-kartalarini taqdim etishlari talab etiladi. 18 yoshgacha bo‘lgan yosh san’at ixlosmandlari madaniyat o‘choqlariga guruh bo‘lib yoki yakka tartibda tashrif buyurishlari mumkin bo‘ladi.

Shuningdek, tashrif buyuruvchilar guruhining obyektlarga bepul kiritilishini tegishli ta’lim va tarbiya muassasasi yoki ularga guruhlarga jamlangan tashkilot rahbariyati hamda obyektlar hamkorligida ishlab chiqilgan reja-jadval asosida ham amalga oshirishlari mumkin bo‘ladi. Bunda ta’lim yoki tarbiya muassasasi yoki ularni guruhga to‘plagan rahbariyati oldindan obyektlarga tashrif buyuruvchilarning tarkibi, bolalar guruhlariga hamrohlik qiluvchi mas’ul shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni obyektlar ma’muriyatiga kamida uch kun avval yozma ravishda taqdim etishlari talab etiladi. Yosh sayohatchilar guruhiga hamrohlik qiluvchi ikki nafargacha mas’ul shaxsga obyektlarga bepul kirishga ruxsat beriladi. Obyektlarga bepul kiritilgan tashrifchilarga xizmat ko‘rsatish, jumladan, ekskursiya xizmati, tashrif buyuruvchilar uchun belgilangan umumiy tartibda amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, har yili 2-8-sentabr kunlari davlat muzeylarida o‘tkaziladigan “Muzeylar haftaligi” doirasida barcha aholi davlat muzeylariga bepul kiritiladi”.

Aytish joizki, Prezident farmoniga ko‘ra, respublika fuqarosi hisoblangan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarning madaniy meros inshootlariga, jumladan, ko‘rgazmalar tarixiy obidalar va ziyoratgohlar, shuningdek, davlat muzeylariga to‘lovsiz kirish tartibi joriy etilishi belgilangan. Biroq Madaniy meros agentligi mas’uli bergan ma’lumotda 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar haftaning ayrim kunlarida, sana va bayramlar munosabati bilan hamda turli dasturlar doirasida ma’lum bir kunlarda ushbu obyektlarga bepul kirishi aytilmoqda. Bizningcha, bu Prezident farmonida belgilangan vazifalarning bir qismi, xolos. Chunki bunda 18 yoshgacha bo‘lgan respublika fuqarolarining madaniy meros inshootlariga istalgan vaqtda, to‘liq bepul kirishi ta’minlanmayapti.

Bu haqda Madaniy meros agentligi mas’ullari batafsil izoh bersa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

**Fazliddin RO‘ZIBOYEV,**
**“Zarafshon” muxbiri.**

**Qishloq ayoli, uning turmush tarzi haqida maqola tayyorlash maqsadida qahramon izlab, Nurobod tumanining Olg‘a qishlog‘iga yo‘l oldik.**

# Qishloq ayolining BAXT formulasi



Cho‘l sharoiti, cho‘ponlar hayoti. Injiq tabiat, atrof qum, yolg‘iz qo‘nalg‘a, qo‘ni-qo‘shnisi yo‘q, dardkashi faqat qo‘y-qo‘zilar. Yana qishda qo‘rasiga ba’zan bo‘ri «mehmon» bo‘lsa, yozda esa chayon va soya izlagan o‘q ilonlar o‘zini uradi. Ana shunday taqdir egasi bo‘lgan qahramonimiz, cho‘l bag‘rida yashovchi cho‘pon ayol - Zuhra Xidirova. Zuhra opa Nurobodning keng dasht yaylovlarida uzoq yillardan buyon cho‘ponlik qilib keladi. Shu kasb orqasidan farzandlarini tarbiyalab voyaga yetkazgan. Bugun ular oliy ma’lumotli, yaxshi kasb egasi.

Manzilga kelsak, cho‘ponlar qo‘nalg‘asi men yo‘lda tasavvur etgandek, devorlari toshdan, tomi loyga yantoq qo‘shib suvalgan g‘aribona emas ekan. Hartugul uy tomi shiferlangan, qulaygina boshpana. Yonida zamonaviy avtomobil turibdi, eng asosiysi, mo‘jazgina quyosh batareyasi ham borligi e’tiborimni tortdi. Otardagi qo‘ylar va cho‘ponlar uchun suv chiqaradigan artezian moslamasi ham quyosh batareyasi vositasida ishlar ekan.

**CHO‘PONLAR AVLODI**

- Ota-bobolarimiz cho‘ponlar avlodidan. Uch avlodimiz shu kasb egalari bo‘lishgan,- deydi Zuhra opa. - 20 yildan ortiq shu cho‘lda cho‘ponlik qilib kelaman. Bu yil kayfiyatimiz yaxshi, ko‘klam seryog‘in kelib, o‘t-o‘lan mo‘l bo‘ldi. Qishlovga barcha tayyorgarliklarni ko‘rib qo‘ydik. Kasbimni sevaman, keng dala, qo‘y-qo‘zilar hamrohim. Olis cho‘lda bo‘lsak-da, shu yumushlardan ortib, farzandlarimning ta’lim-tarbiyasi bilan ham shug‘ullandim. Yuzimizni yorug‘ qilib, ular oliy ma’lumotli bo‘ldi. Bir ayol nima orzu qilsa, shularning barchasiga erishyapman, deb o‘ylayman. Cho‘lda yashashimdan, cho‘pon ekanimdan hecham afsuslanmayman. Aksincha, faxrlanaman. Ko‘pchilikning tasavvurida "cho‘pon ayol" degan-da turmushi qiyin, og‘ir mehnatli ayol gavdalanadi. Yo‘q, bugun unday emas. Masalan, men shu cho‘lda yashayotganimdan hech qachon armon qilmaganman.

**CHO‘PON TAYOG‘I**

Biz bilan ko‘rishgandan xayrlashguncha opa qo‘lidan cho‘pon tayog‘ini qo‘ymadi, uni juda avaylar ekan. Bir qarashda oddiygina ko‘ringan cho‘pon tayog‘ida ko‘p ramziy ma’no bor ekan.

— 27 yoshimda otamdan shu tayoqni qabul qilganimdan so‘ng cho‘pon degan haqiqiy mavqega erishganman, — deydi qahramonimiz. — Bu tayoqni otamning otasi unga bergan, u menga, men esa farzandimga beraman. Bu tayoq biz uchun juda qadrli. U doim otamni eslatib turadi. Hatto bir bor hayotimni saqlab qolgan. Bir kuni ochiq cho‘lda ikkita bo‘riga duch kelib qoldim, atrofda hech kim yo‘q, yordam chaqirish befoyda. Bo‘rilar esa hujumga shaylanyapti, shunda shu tayoqni olib, havoda silkidim-da, xuddi miltiq ushlaganday ularga o‘qtaldim, bo‘rilar darrov qochib qoldi...

**CHO‘PONLAR NEGA KO‘ZOYNAK TAQMAYDI?**

Opa va uning hamrohlari bilan cho‘ponlar davrasidagi suhbat shu asnoda qizib borardi. Bir-biridan qiziq ma’lumotlar esa diktofonimga muhrlanardi...

Aytishlaricha, dunyodagi eng o‘tkir ko‘z sohiblari cho‘ponlar bo‘lar ekan. Bunga sabab esa, faqat olislarga qadalgan nigohlar emas, balki cho‘ponlarning har oqshom gulxan atrofidagi o‘tirishidan ekan. Ma’lum bo‘lishicha, o‘sha gulxan asosan cho‘l yantog‘idan tashkil topadi va u ko‘zning zararli zahrini olarkan.

Cho‘ponlarning aksariyati sog‘lom bo‘lib, ular kuniga 30 kilometrgacha masofani piyoda bosib o‘tar ekan.

**CHO‘PONLAR VA INTERNET**

Cho‘ponlar qo‘nalg‘asida internet ishlamasligidan diqqatim oshib, ulardan bu haqda so‘raganimda, «qishloq markaziga borsakkina ishlatamiz internetni» deb javob berishdi.

Ha, shukronalikda gap ko‘p. Inson qay manzilda, qay kasbda bo‘lmasin, o‘zi sevgan insonlar bilan birga bo‘lsa, o‘zi yoqtirgan kasb bilan mashg‘ul bo‘lsa, asli uning baxti shudir. Shu o‘rinda, opa istiqomat qiladigan cho‘ponlarning qo‘nalg‘asidan olislay turib, katta shaharlarda internet yarim soatga ishlamasa, TV-kabeli o‘chib qolsa, taksi kechiksa yuzaga keladigan betoqatliklar haqida o‘yladim. Inson shularsiz ham yashasa bo‘larkan-ku! Zuhra Xidirova kabi cho‘pon ayollar yuzida cheksiz sabot, hayot sinovlari izlarini va shu bilan birga, mag‘rurlik, o‘ziga yarasha baxtiyorlik, kamtarinlik namoyon. Ular ha deganda go‘zallik salonlariga bormaydi, yasama kiprik, tirnoqlar ulamaydi. Ko‘ngli tusab «butik» rastalarini aylana olmaydi. Lekin hech qachon hech kimga hech nimadan nolimaydi... U shukronalik bilan qumda zar yaratadi. Keta turib, kelishimdagi tasavvurim o‘zgacha tus olgan edi. Ular cho‘l sharoitidagi bu masrurlikni, baxtni hashamatdan emas, oddiylikdan, shu halovatdan topgan bo‘lsa ne ajab.

**Shuhrat NORMURODOV.**

# 15 MILLION SO‘MLIK FIRIB ISH BERMADI

***Viloyat transportda xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi boshlig‘i nomiga ariza kelib tushdi. Unda qayd etilishicha, Navoiy viloyatida yashovchi fuqaro murojaatchidan haydovchilik guvohnomasini rasmiylashtirib berish “xizmat”i uchun 15 million so‘m talab qilgan.***

Mazkur arizaga asosan boshqarmaning tezkor xodimlari tomonidan maxsus tadbir tashkil etildi. Unda navoiylik fuqaro tadbirga jalb qilingan fuqarodan “V” toifadagi haydovchilik guvohnomasini rasmiylashtirib berish uchun pul olayotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlandi.

Olib borilgan tergovga qadar tekshiruv harakatlari davomida u Navoiy viloyati Qizitepa tumanida yashovchi 34 yoshli E.M. ismli ayol ekanligi aniqlandi. Hozirda bu fuqaroga nisbatan O‘zbekiston Respubliksi Jinoyat kodeksining 168-moddasi 1-qismi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan.

**F.MO‘MINOV,**
**viloyat transportda xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi TQB JQB xodimi, podpolkovnik.**



# Vatanimiz bir, maqsadlarimiz ham

**Joriy yilning 11-16-noyabr kunlari yurtimizda “Bag‘rikenglik haftaligi” o‘tkazilmoqda. Har yili “Xalqaro bag‘rikenglik kuni” munosabati bilan tashkil etiladigan ushbu ma’rifiy haftalik millatlar va diniy konfessiyalar o‘rtasida o‘zaro ahillik va hamjihatlik, do‘stlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.**

— Yurtimizda millatlararo totuvlikni ta’minlash, inson sha’ni, qadr-qimmatini ulug‘lash davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi, - deydi din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi Samarqand shahar bosh mutaxassisi Rustam Sultonov. – Buning natijasida diyorimizdagi 130 dan ziyod millat va elatlar vakillari teng huquq va imkoniyatlardan foydalanib Vatanimiz taraqqiyotiga hissa qo‘shmoqda. Bugun birgina Samarqand shahrining o‘zida 10 ta milliy madaniy markaz, 16 ta konfessiya hamda 17 ta noislomiy diniy tashkilot faoliyat yuritadi. 23 ta masjid, 17 ta cherkov bor. Asosiysi, barcha uchun teng sharoit yaratilgan.

Haftalik doirasida joylarda turli madaniy-ma’rifiy tadbirlar, ilmiy-amaliy konferensiya, kitoblar ko‘rgazmalari va boshqa tadbirlar o‘tkazilyapti. Ahamiyatlisi, ularda barcha millat vakillari faol ishtirok etib, do‘stlik rishtalarini yanada mustahkamlamoqda.

— O‘zbekiston umumiy uyimiz va biz bundan faxrlanamiz, - deydi nemis milliy madaniy markazi raisi Natalya Kayzer. – Bu yerda milliy madaniyatimizni rivojlantirish, urf-odat, an’analarimizni saqlab, yosh avlodga yetkazishimiz, bayramlarimizni emin-erkin nishonlashimiz uchun barcha imkoniyatlar bor. Aytish mumkinki, diniy bag‘rikenglikni ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston tajribasi dunyoning aksariyat davlatlari, xalqaro tashkilotlar tomonidan e’tirof etiladi. Shunday ekan, uni asrashimiz, farovon hayotimizni birgalikda himoya qilishimiz kerak.

**Asqar BAROTOV.**

# Xorijga chiqish biometrik pasportini pochta orqali olsa bo‘ladi

**Mazkur tartib Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish va berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarorida belgilandi.**

Unga ko‘ra, endi xizmatdan foydalanuvchi so‘rovnomada xorijga chiqish biometrik pasporti pochta aloqasi orqali yetkazib berilishini ko‘rsatsa, ma’lumotlarni yig‘ish punkti xodimlari xorijga chiqish biometrik pasportini pochta xizmati xodimiga beradi. Bunda pochta xarajatlari xizmatdan foydalanuvchi hisobidan qoplanadi.

Pochta xizmati tomonidan ko‘rsatilgan xizmat uchun to‘lov miqdorini pochta xizmati belgilaydi va to‘langan to‘lovlar qaytarilmaydi. Pochta xizmati xodimi xorijga chiqish biometrik pasportini ma’lumotlarni yig‘ish punktidan qabul qilib olgandan boshlab uni foydalanuvchiga yoki tegishli ma’lumotlarni yig‘ish punktiga qayta topshirgunga qadar but saqlanishini ta’minlash uchun javobgar hisoblanadi.

Tayyor bo‘lgan xorijga chiqish biometrik pasporti faqatgina xizmatdan foydalanuvchining o‘ziga taqdim etiladi.

**Zohid ABULQOSIMOV,**
**Oqdaryo tumani adliya bo‘limi Davlat xizmatlari markazi shu’ba boshlig‘i.**

*Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish va iste’dodli yoshlarni kashf qilish maqsadida joriy yilning 1-martidan boshlab “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida madaniyat va san’at yo‘nalishida “Bo‘zatov yoshlar ovozi” va “Yosh musavvir”, sport yo‘nalishida yengil atletika, stol tennisi, vorkout, mini futbol, futbol, armrestling, voleybol, stritbol, kurash, shashka, shaxmat, gimnastrada va “Besh tashabbus paralimpiadasi” o‘tkazilmoqda.*

## “Besh tashabbus olimpiadasi”:

# Paxtachilik yoshlar viloyatda yetakchi

Shuningdek, kompyuter texnologiyalari va IT yo‘nalishida kibersport, kitobxonlik va intellektual o‘yinlar yo‘nalishida “Yosh kitobxon”, “Yosh kitobxon oila”, “Mushoira”, “Zakovat”, “Ibrat”, kasblar tanlovi yo‘nalishida novvoychilik, yosh quruvchi, dizaynerlik, elektromontaj ustasi va payvand ustasi kabi tanlov va sport musobaqalari tashkil etilyapti.

Hozirgi kunga qadar musobaqaning to‘rtinchi viloyat bosqichida 16 tuman (shahar) yoshlari 65 ta oltin, 65 ta kumush, 67 ta bronza medalni qo‘lga kiritdi. Tumanlar kesimida paxtachilik yoshlar 28 ta medal bilan bu yil ham viloyatda yetakchilik qilmoqda. Aytish joizki, tuman yoshlari o‘tgan yilgi musobaqalarda 208 ta tuman (shahar) orasida eng yaxshi natija qayd etib, respublikada birinchi o‘rinni egallagan edi. Tumandagi 7 ta mahalla yoshlari musobaqalarning respublika bosqichida 6 ta oltin va 2 ta kumush medal bilan 22 ball to‘plagan.

“Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida bugungi kunga qadar sportning yengil atletika, stol tennisi, shashka, vorkout, futbol, mini futbol turlari hamda imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan yoshlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan A, B, C, ligalarning respublika musobaqalarida viloyatimiz jamoalari 4 ta oltin, 4 ta kumush va 9 ta bronza medalni qo‘lga kiritdi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha hozircha viloyat yoshlari respublikada sakkizinchi o‘rinda bormoqda.

# Ta’lim sifatini oshirish uchun Singapur tajribasidan foydalaniladi

## Bu usul qanday samara beradi?

**Maorif sohasiga katta sarmoya kiritib, yuksak natijalarga erishayotgan davlatlardan biri Singapurdir. Singapur ilmiy-texnik rivojlanish sohasida jahonda yetakchi mamlakatlardan biriga aylangan va ayni paytda aholisining savodxonligi bo‘yicha ham dunyoda yuqori ko‘rsatkichga ega.**



Prezidentimizning joriy yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining xalqaro tajriba asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirish, o‘quvchilarning aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlariga muvofiq yurtimizdagi umumta’lim maktablarida Singapur tajribasidan foydalanilyapti.

Jumladan, Samarqanddagi umumta’lim maktablarida ham mazkur tajriba asosida “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tashkil etilgan. Bunda viloyatdagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlari, aniq fanlar va tabiiy fanlar o‘qituvchilari Singapur xalqaro ta’lim dasturlari asosida malakasini oshirmoqda.

Bu haqda viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi tomonidan ayni shu mavzuda tashkil etilgan press-turda soha mutaxassislari batafsil ma’lumot berishdi.

– Viloyatdagi 1266 ta umumta’lim maktabida “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati”ni o‘tkazish bo‘yicha o‘qituvchilar ro‘yxati shakllantirilgan bo‘lib, joriy yilning oktabr oyidan bu tizim yo‘lga qo‘yildi, - deydi viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Ozodjon Jangirov. – Jumladan, aniq (matematika va informatika) va tabiiy fanlar (fizika, biologiya, kimyo, geografiya) yo‘nalishida 17 nafar master-trener, 96 nafar mentor-trener, 2526 nafar yetkachi o‘qituvchi va 10 ming 223 nafar fan o‘qituvchisi jalb etildi. Shunga ko‘ra, tabiiy va aniq fanlar yo‘nalishida 90 ta maktabda mashg‘ulotlar o‘tkazilmoqda.

“Kasbiy rivojlanish kuni” oyning birinchi va uchinchi haftasida, “Kasbiy rivojlanish soati” esa oyning ikkinchi va to‘rtinchi haftasida tashkil etilgan. Har oyning birinchi va uchinchi haftasida singapurlik mutaxassislar viloyatdagi har bir maktabdan kelgan bir nafardan yetakchi o‘qituvchilarga ta’lim jarayonidagi o‘z tajribasini o‘rgatadi. Malaka oshirgan yetakchi o‘qituvchilar olgan tajribasini hamkasblariga o‘rgatadi va buni ta’lim jarayonida qo‘llaydi. Buning uchun esa ularga oylik maoshining 20 foizi to‘lab beriladi. Mazkur jarayon to‘rt bosqichda amalga oshirilib, hozirda birinchi bosqich davom etmoqda. Ya’ni, oktabr oyidan martgacha aniq va tabiiy fanlar o‘qituvchilari uchun 72 soatlik trening tashkil etiladi.

Press-tur davomida viloyat pedagogik mahorat markazida Singapur ta’lim tajribasini o‘rganayotgan o‘qituvchilar bilan ham suhbatlashdik.

- Hozir aniq va tabiiy fanlar yo‘nalishida Singapur tajribasini o‘rganyapmiz, - deydi Toyloq tumanidagi 3-umumta’lim maktabi biologiya fani o‘qituvchisi Dilorom Ibodullayeva. – Jarayonda tabiiy fanlarni o‘qitishda Singapurning “Marshall Cavendish Education” o‘quv dasturiga kiritilgan besh bosqichli “5 Ye” moduli bizga manzur bo‘ldi. Jumladan, modulning birinchi zamonaviy jalb qilish bosqichida o‘quvchi mavzuga mos muammoli video, rasm, savol yoki jadval bilan e’tiborini tortish va diqqatini darsga qaratish mumkin. Ikkinchi tadqiq qilish bosqichida o‘quvchi yangi mavzuni o‘zlashtirishi uchun qiziqarli topshiriqlar beriladi va mavzuni o‘rtoqlari bilan tadqiq qiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga ilmiy tadqiqot metodlari va mavzuga oid ilmiy tushunchalarni amaliy topshiriq orqali o‘rganishni taklif etadi. Uchinchi tushuntirish bosqichida o‘qituvchi o‘quvchilardan avvalgi bosqichlarda nimani o‘rganganlari va kuzatganlarini tushuntirishni so‘raydi. O‘qituvchi ilmiy tushunchalar mazmunini kengroq yoritib berishi mumkin. O‘quvchilar ilmiy tushunchalarni yaxshiroq o‘zlashtirishlari uchun darsda nafaqat verbal, balki video, audio materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq. “5 Ye” modulining to‘rtinchi qo‘llash bosqichida o‘quvchilar tadqiq etish va tushuntirish bosqichlarida o‘rgangan bilim va ko‘nikmalarini notanish vaziyatlarda qo‘llaydilar. Ushbu bosqichda fanlararo integratsiyani ta’minlash maqsadga muvofiq. Tabiiy fanlarni matematika, san’at, texnologiya va boshqa fanlar bilan bog‘liq holda o‘rganish ilmiy tushunchalarni yaxshiroq o‘zlashtirishga imkon beradi va o‘quvchilar ilmiy tushuncha va ko‘nikmalarni yaxshiroq o‘zlashtiradilar. Modulning so‘nggi beshinchi baholash bosqichida o‘quvchilar o‘zini o‘zi baholaydi. Xato va kamchiliklar muhokoma etilib xulosa qilinadi.

Press-tur davomida Samarqand shahridagi 14- va Samarqand tumanidagi 10-umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” jarayonlari bilan ham tanishildi.

**F.RO‘ZIBOYEV,**
**“Zarafshon” muxbiri.**

# Respublikamizdan moddiy-ma’naviy qimmatliklarni olib chiqish ko‘paygan

**Joriy yilning 10 oyida davlat budjetiga undirilgan bojxona to‘lovlari 2,72 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida bojxona to‘lovlaridan 1,81 trillion so‘mga yaqin imtiyoz va tarif preferensiyalari qo‘llanilgan. Imtiyozlar asosan texnologik asbob-uskunalar, transport vositalari, MDH davlatlarida ishlab chiqarilgan dori vositalari va 22 turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga tegishli bo‘ldi. Bojxona tizimida to‘lovlarni kechiktirib to‘lash tartibi soddalashtirilgan va yilning o‘tgan davrida tadbirkorlar 617,9 milliard so‘m miqdorida bojxona to‘lovlarini to‘lashda ushbu imkoniyatdan foydalandi.**

Bu haqda viloyat bojxona boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari Anvar Muhammadiyev ishtirokida o‘tkazilgan matbuot anjumanida ma’lum qilindi.

- Viloyat bojxonachilari tomonidan yilning 10 oyida aniqlangan 1404 ta huquqbuzarlik holatlarida jami 33 milliard 778,5 million so‘mlik tovar va transport vositalarining noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yildi, - deydi A.Muhammadiyev. – Mazkur holatlar bo‘yicha 1238 ta ma’muriy va 55 ta jinoyat ishi qo‘zg‘atildi. 31 ta holatda 43,6 kilogramdan ortiq giyohvandlik moddasi noqonuniy aylanmasi aniqlandi. 9 ta holatda 1 milliard so‘mlik alkogol mahsulotlari hamda 26 ta holatda 204 million so‘mlik tamaki mahsulotlarining noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yildi. 2023-yilda moddiy, ma’naviy qimmatliklarning olib chiqilishi oldi olindi.

Ma’lumot uchun, yilning o‘tgan davrida bojxona boshqarmasida tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari tomonidan 724,9 million dollarlik eksport amalga oshirilgan. Bu 2023-yilga nisbatan 96 million dollar yoki 15,3 foizga ko‘paygan.

Yurtimizga import qilingan tovarlar esa 1759,6 million dollarni tashkil etgan. Import qilingan mahsulotlarning asosiy qismini metall va undan tayyorlangan buyumlar, transport va uning ehtiyot qismlari, texnologik asbob-uskunalar, farmatsevtika va oziq-ovqat mahsulotlari tashkil etgan.

# Xizmatlar sohasida savdoning ulushi yuqori

**2020-2024-yillarda viloyatda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish dasturi asosida bozor xizmatlari hajmi 25,7 trillion so‘mga oshib, 39,7 trillion so‘mga yetdi. Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 5,8 million so‘mga oshib, 9,4 million so‘mni tashkil etdi.**

Viloyat statistika boshqarmasida xizmatlar sohasi statistikasi ko‘rsatkichlari mavzusida o‘tkazilgan matbuot anjumanida boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari Tolib Siddiqov bu haqda ma’lumot berdi.

- Hozirda iqtisodiyotda jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining salmoqli qismini (2024-yilda 6,5 trillion so‘m) savdo xizmatlari tashkil etib, keyingi besh yilda 2,3 trillion so‘mga oshgan, - deydi T.Siddiqov. – Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmi 0,5 trillion so‘mga oshdi. 2024-yilda moliyaviy xizmatlar hajmi 4 trillion so‘mni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 1,9 trillion so‘mga ko‘paydi.

Fuqarolarni sifatli va arzon ta’lim bilan ta’minlash jamiyat taraqqiyoti va uning kelajagini ko‘p jihatdan belgilab beruvchi vazifadir.

2024-yilda ko‘rsatilgan ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi 2020-yilga nisbatan 0,6 trillion so‘mga oshib, 1,3 trillion so‘mga, transport xizmatlari esa 2020-yilga nisbatan 2,2 trillion so‘mga oshib, 5,6 trillion so‘mga yetdi.

Eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda, tashqi savdo muvozanatini ta’minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2024-yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2188,7 million dollarga yetdi va 2023-yilning shu davriga nisbatan 207 million dollarga yoki 10,4 foiz ga o‘sdi.

**O‘ktam XUDOYBERDIYEV.**

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

# TANLOVDA QATNASHING!

**O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti quyidagi kafedralar bo‘yicha lavozimlarga tanlov e’lon qiladi:**

**Kafedra mudiri lavozimiga:**
*1. Milliy g’oya va falsafa kafedrasiga – 1 o‘rin;*
*2. Psixologiya kafedrasiga – 1 o‘rin;*
*3. Kimyo kafedrasiga – 1 o‘rin;*
*4. Rus tili va adabiyoti kafedrasiga – 1 o‘rin.*
**Kafedra professori lavozimiga:**
*1. Matematika kafedrasiga – 1 o‘rin;*
*2. Jismoniy madaniyat va sport kafedrasiga – 1 o‘rin.*
**Kafedra dotsenti lavozimiga:**
*1. Rus tili va adabiyoti kafedrasiga – 1 o‘rin.*
**Kafedra assistenti lavozimiga:**
*1. Biologiya kafedrasiga – 3 ta o‘rin;*
*2. Geografiya kafedrasiga – 1 o‘rin;*
*3. Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasiga – 1 o‘rin;*
*4. Jismoniy madaniyat va sport kafedrasiga – 1 o‘rin;*
*5. Rus tili va adabiyoti kafedrasiga – 5 o‘rin;*
*6. Xorijiy tillar (ingliz tili mutaxassisligi) kafedrasiga – 1 o‘rin;*
*7. Boshlang‘ich ta’lim kafedrasiga – 2 o‘rin;*
*8. Pedagogika kafedrasiga – 2 o‘rin;*
*9. Tarix kafedrasiga – 3 o‘rin;*
*10. Informatika kafedrasiga – 2 o‘rin;*
*11. Maktabgacha ta’lim kafedrasiga – 4 o‘rin.*

**Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:**
*- institut rektori nomiga ariza;*
*- xodimlar hisobi bo‘yicha shaxsiy varaqa;*
*- oliy ma’lumot, ilmiy daraja haqidagi diplomlarning nusxalari;*
*- ilmiy unvoni haqidagi attestatning nusxasi;*
*- ilmiy va uslubiy ishlarning ro‘yxati;*
*- malaka oshirganligi to‘g‘risidagi guvohnoma;*
*- Xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar nusxasi (mavjud bo‘lsa).*

Xorijiy tillar bo‘yicha sertifikatga ega, PhD yoki DSc ilmiy darajasiga ega, dotsent yoki professor ilmiy unvoniga ega bo‘lgan talabgorlarga ustunlik beriladi.

**Hujjatlar gazetada e’lon chop etilgach, bir oy davomida quyidagi manzilda qabul qilinadi: Samarqand shahri Spitamen shohko‘chasi, 166.**

## DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Kudratova Maysara Asatullayevnaga (2005-yil 24-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko‘chasi, 80-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Nazarov Ulmas Djamolitdinovichga (2022-yil 23-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko‘chasi, 200-uy, 3-xona.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasida marhum Melikov Pustamga (2024-yil 2-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko‘chasi, 121-uy, 21-xona.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Zubaydullayev Xurramga (2010-yil 7-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 51-uy.**

* * *

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Sa’dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Mansurova Nazira Soxibovnaga (2023-yil 28-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Sa’dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko‘chasi.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Xalmamedova Muxaramga (2010-yil 12-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Sug‘diyona maskani, 14/12-uy.**

* * *

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasida marhum Ro‘zimurodov Turg‘un Boboyarovichga (2024-yil 11-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Narpay tumani “Salovot” MFY.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug‘bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Xudoyarov Iskandar Turabekovichga (2024-yil 10-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Murtazayev Ulug‘bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko‘chasi, 12-uy.**

* * *

Past Darg‘om tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ahatov O‘lmas To‘rayevich notarial idorasida marhum Allayev Asramga (2021-yil 25-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ahatov O‘lmas To‘rayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Past Darg‘om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko‘chasi, 26-uy. Telefon +99890-502-69-86.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius G‘afforov Ulug‘bek Rahimjonovich notarial idorasida marhum Balatukov Ismail Fazalovichga (2011-yil 9-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning G‘afforov Ulug‘bek Rahimjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 18-uy, 14-xona.**

* * *

## BEKOR QILINADI

Abiyev Almat Yavgashyevich va Marupov Gulshanlar o‘rtasida Samarqand shahri Bog‘dod ko‘chasi, 11-uy, 19-xonadon uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasidan 2006-yil 2-iyunda tasdiqlanib, 6044 raqam bilan reestrga kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining dublikati yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Samarqand viloyat adliya boshqarmasidan 2020-yil 6-noyabrda O‘zbekiston “Mahalla” xayriya jamoat fondining Qo‘shrabot tuman bo‘linmasiga (STIR: 201446142) berilgan 229 raqamli guvohnomaning asl nusxasi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.



# OMONQO‘TON g‘ori HAQIDA NIMALARNI BILASIZ?

**Omonqo‘ton qishlog‘i Urgut tumanining janubi-sharqiy qismida, Zarafshon tog‘ tizmalari bo‘ylab tog‘oldi hududida joylashgan qadimiy go‘sha sanaladi. Aynan shu qishloqdan qadimda Buyuk ipak yo‘li o‘tgan va viloyatimizdan topilgan eng qadimiy yodgorliklardan biri Omonqo‘ton g‘ori joylashgan.**

Ma’lumotlarga ko‘ra, Omonqo‘ton g‘ori 1947-yilda arxeolog David Lev tomonidan topilgan. G‘or ochilgan paytda MDH davlatlari hududida paleolit davriga oid 166 ta yodgorlik aniqlangan. Bundan ko‘rinadiki, Samarqand davlat universiteti tarixchilari o‘sha vaqtda paleolit davri yodgorliklarini o‘rganishning ancha taraqqiy etgan uslubidan foydalangan. Makon Chaqulqulyon tog‘larida dengiz sathidan taxminan 1300 metr balandlikda, Samarqand shahridan 45 kilometr janubda joylashgan. G‘orda tadqiqotlar 10 yil davom etgan. Obyekt madaniy qatlamlarining qalinligi 0,25 dan 1,5 metrgacha yetadi.

**BAHOR OYLARIDA G‘ORDAN SUV CHIQADI**

- G‘or milliy tabiat bog‘i hududida joylashgan, - deydi Omonqo‘ton milliy tabiat bog‘i direktori Azamat Amrullayev. – 1947-yilgacha bu joyda g‘or bor-yo‘qligini shu yerda yashayotgan aholi ham bilmagan. Samarqand davlat universiteti arxeologiya kaderasi professori David Lev qadimiy g‘orni aniqlab, qazishma ishlarini olib borgan. Arxeologik qazishma va tadqiqotlar natijasida g‘orda o‘rta paeolit davriga oid odamlar, turli jonzot va hayvonlarning 16 ming dona suyaklari, gulxan, o‘choqlar, ov va ish qurollari topilgan. Har yili bahor oylarida yer osti suv sathining ko‘tarilishi natijasida g‘ordan suv chiqadi. Ushbu jarayon may oyining oxirigacha, ba’zida saratonga qadar davom etadi va suv o‘z-o‘zidan quriydi. Afsuski, shu yil bahorda, iqlim o‘zgarishi natijasidami, suv chiqmadi.

**G‘OR ICHKARISI QISMLARGA BO‘LINGAN**

G‘orning umumiy uzunligi 82 metr bo‘lib, ichkariga 10 metr kirilganda balandligi qariyb 4 metrlik keng joy bor. G‘or ichkarisiga kirganimizda supa va bitta xonaga bo‘linganini ko‘rdik. Xona oq toshlardan qilingan va hozirgacha rangini yo‘qotmagan. G‘or ichkarisi nam bo‘lsa-da, iliq ekan. Aytishlaricha, g‘or kuz va qish faslida iliq, bahorda suv bilan to‘lib, yozda salqin bo‘ladi. Devorlar juda qadimiy, naqshga o‘xshagan chiziqlar va suv chiqadigan tirqishlar bilinib turibdi. G‘or ichkarisida qariyb 40-50 metr yurganimizdan keyin tor yo‘lakka duch keldik, lekin u yerdan o‘tishning imkoni bo‘lmadi.

Milliy bog‘ direktori Azamat Amrullayevning so‘zlariga ko‘ra, g‘or ichkarisidagi yo‘lak keyingi yillarda qisqarib bormoqda. Ammo shu yo‘lakdan o‘tgandan keyin 25-30 metr yana g‘orning oxirigacha keng joy bor. Bir so‘z bilan aytganda, g‘orning aniqlanishi va g‘ordan topilgan arxeologik topilmalar nafaqat ibtidoiy davr, balki odamlarning hayoti, yashash tarzi, ov hamda ish qurollari, balki qadimgi paleoiqlim haqida ham muhim ma’lumlotlar beradi.

**SAYYOHLAR TASHRIF BUYURADIGAN DIQQATGA SAZOVOR MASKAN**

Qadimiy g‘orda noyob o‘simlik va hayvonot turlari mavjud, o‘ziga xos landshaftga ega, tog‘ yonbag‘rida, 1,5 ming gektar maydonni egallagan bog‘ hududida joylashgani bilan ham o‘ziga xos ahamiyatga ega. Bahor va yoz oylarida milliy bog‘ hududi mahalliy va xorijlik sayyohlar bilan gavjum bo‘ladi.

- Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-martdagi qarori asosida Omonqo‘ton milliy tabiat bog‘i tashkil etilgan, - deydi Azamat Amrullayev. - Milliy bog‘ni tashkil etishdan asosiy maqsad tabiatni asrab-avaylash, o‘rmon va tog‘oldi hududlardagi yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan o‘simlik va hayvonot dunyosini saqlab qolish va rivojlantirishdan iborat. Hududning 1000 gektari qo‘riqxona zonasi, 400 gektari rekreatsion va 100 gektari xo‘jalik yuritishga mo‘ljallangan. Bog‘da 1300 turdan ziyod noyob o‘simlik va daraxtlar, 120 turdan ortiq hayvon va jonzotlar yashaydi. O‘simlik va hayvonot dunyosini himoya qilish, xavfsizligini ta’minlash maqsadida hududda 15 nafar xodim faoliyat ko‘rsatadi. Shuningdek, hududda taqiqlovchi va ogohlik belgilari o‘rnatilgan bo‘lib, milliy bog‘ga keluvchi mahalliy va xorijlik sayyohlar hamda aholi o‘rtasida bog‘ning qo‘riqxona zonasiga ruxsatsiz kirmaslik, noyob o‘simlik, daraxt va jonzotlarga ziyon yetkazmaslik borasida tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Ammo keyingi paytda milliy bog‘ hududidagi mahalliy aholi tomonidan "Qizil kitob"ga kiritilgan dorivor o‘simlik va gullarni uzish, ziyon yetkazish, qo‘riqxona zonasida chorva mollarini boqish holatlari ham kuzatilmoqda. Jumladan, joriy yilning o‘tgan davrida 10 ga yaqin holatda fuqarolar tomonidan qonunbuzilish holatlari kuzatilgan va tegishli tartibda choralar ko‘rilgan. Aytish joizki, tabiat bog‘ining qo‘riqxona zonasiga kirish, o‘simliklarni payhon qilish, "Qizil kitob"ga kiritilgan o‘simliklar va gullarni uzish, shikastlantirish, daraxtlarni, butalarni kesish, o‘tin va shox-shabba olish, dorivor-ziravor o‘simliklarni (tog‘ choyi, kiyik o‘ti, zira va boshqa dorivorlar)ni terish, hayvonot dunyosiga zarar keltirish O‘zbekiston Respublikasi «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi, «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida»gi qonunlar va boshqa qonunosti hujjatlariga muvofiq, ma’muriy va jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi.

**Fazliddin RO‘ZIBOYEV.**

*Turmush chorrahalarida*



# TONG otmagan TUN

**Tangri marhamat qiladi: “Sabr-qanoatlilar mening eng sevgan bandalarimdir”. Nosir buni kech angladi. Nafs qutqusiga uchib, sabr-qanoatni unutdi. Hunarli, toparman-tutarman yigit Mahzunaga uylanib, el qatori shiringina hayot kechirayotgan edi. Oshib-toshib ketmagan bo‘lsa-da topgani ro‘zg‘orga yetar, hech narsaga zoriqmay yashardi. Nima bo‘ldi-yu tanishlarining so‘ziga uchib, ko‘proq pul topish ishtiyoqiga tushdi. Qayerniki, qilmagin orzu, har yerda bor toshu tarozu… Bu naql behuda aytilmagani uning xayoliga ham kelmasdi. Oqibatda oilasi barbod, umri xazon bo‘ldi.**

...Olis taygada vagon uyda yashab, izg‘irin sovuqda daraxt kesib, o‘n olti yil ishladi. Yemay-ichmay topganini Mahzunaga jo‘natib turdi. Musofirchilikdagi azob-uqubat, it yotish - mirza turish, gohida bir burda nonga zor kunlar o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Shamollab, zotiljam orttirib oldi.

O‘pkasi uzilgudek yo‘tal holdan toydirdi. Ishga yaramay, davolanishga, mehrga zor bo‘lib qoldi. Bir amallab qarz-qavola qilib uyga qaytdi. Har gal uch-to‘rt yilda kelib-ketganida Mahzunaga xabar qilardi. Bu safar xabar qilish ham ko‘ngliga sig‘masdi. Holdan toygan, kayfiyati tushib ketgandi. “Nega chetga ketdim? Endi xasta odam qanday yashayman?”.

Samolyot yarim tunda manzilga qo‘ndi. Nosir uyiga yetib kelganida hali tong yorishmagan qorong‘i kecha edi. Pishiq g‘ishtdan qurilgan hashamatli uy qarshisida savlat to‘kib turar, ulkan darvoza tepasida neon chiroq charaqlardi. “Baraka topsin, zap aqlli xotinim borda, yuborgan pullarimni behuda sovurmay, uy-joyimizga sarflabdi”.

Nosirning Mahzunaga mehri tovlanib ketdi. Yelkasidagi to‘rvani yerga qo‘yib, darvozani taqillatdi. “Mana, hozir Mahzuna chiqadi, kutilmagan uchrashuvdan bir zum dong qotib qoladi. O‘ziga kelgach, Nosirning bag‘riga o‘zini tashlaydi”. Biroq hadeganda darvoza ochilmadi. Bemahalda darvozaning to‘xtovsiz taqillagani tinchini buzganidan norozi qo‘shnining iti erinibgina vovullab qo‘ydi. Mahzuna cho‘chib uyg‘ondi. Xavotirlanib, g‘ujanak bo‘lib yotgan Zokir naynovni turtkiladi.

- Turing, kimdir kelganga o‘xshaydi, tong saharda kim bo‘ldi ekan?

- E, kim bo‘lardi, bironta qo‘shningdurda, nega xavotirlanasan? Ering allaqaysi go‘rda, na tirigi, na o‘liging xabari bor. Yot, qo‘rqma, o‘zim chiqib xabar olaman!

Zokir naynov g‘udranib o‘rnidan turdi, mushtlari bilan uyquli ko‘zlarini ishqalab chiqib, darvozani ochdi.

- Kim u? E, sen...sen... - Naynov Nosirni ko‘rib g‘uldirab qoldi.

- Ha, menman, sen nima qilyapsan uyimda?

- Men... menmi?.. - Zokir basharasiga tushgan musht zarbidan Nosirning oyog‘i ostiga quladi.

- Nima shovqin, kim u? - ichkaridan chiqqan Mahzuna erini ko‘rib, haykalday qotib qoldi. Nosir xotiniga tashlandi.

...Tong otdi. Uyg‘ongan qishloq ahli o‘rtasida mish-mish tarqaldi: “Mahzunani kimdir o‘ldirmoqchi bo‘libdi, hozir kasalxonada hushsiz yotganmish...”. Qo‘ni-qo‘shnilar gumoniga asoslanib, Zokir naynov hibsga olindi. Kutilmagan voqeadan hali o‘ziga kelmagan naynov hammasini tergovchiga aytib berishga majbur bo‘ldi. Nosirni qidiruv natija bermadi. Na tirigi, na o‘ligi topildi. Oradan vaqt o‘tib, voqea ham, mish-mishlar ham unutildi. Telba bo‘lib qolgan Mahzuna ruhiy kasalliklar shifoxonasiga jo‘natildi.

...Bozorda soch-soqoli o‘sgan, juldur kiyimli gado paydo bo‘ldi. U darvoza yonida qizargan ko‘zlarini yerga tikib, ozg‘in, kir qo‘llarini sadaqaga cho‘zib o‘tirardi.

**Tog‘aymurod SHOMURODOV.**

## Ikir-fikrlar

Mayda ishlarni qoyillatadigan kishilar katta ishlarga noqobil bo‘lishadi.

* * *

Qanchalik tirishib harakat qilmasin, bilimsiz odamni hayot suvdagi ko‘pikdek chekkaga chiqarib tashlaydi.

* * *

Ota-ona bilan faxrlanish yaxshi, farzand bilan faxrlanish undan ham yaxshi.

* * *

Jahl kelganda aql qochadi, jaholat kelganda bilim.

**Xudoyberdi KOMILOV.**

# Mutolaa zerikarli mashg‘ulot emas



Kitob o‘qish insonning fikrlash qobiliyatini yuksaltiradi. Afsuski, keyingi paytda yoshlar orasida kitob o‘quvchilar soni kamayib ketdi. Kishilarning asosiy mashg‘uloti ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish bo‘lib qoldi. 30-40 yillar oldin odamlar transport vositalarida ham kitob, gazeta mutolaa qilishgan. Hozir ham rivojlangan davlatlarda odamlar gazeta, kitob o‘qishadi, vaqtidan unumli foydalanadi. Bizda bu holatning mutlaqo teskarisi kuzatilyapti. Avtobusga chiqsangiz, hammaning qo‘lida telefon, hatto yosh bolalar ham telefonda multfilm ko‘rib o‘tirishadi. Telefonda o‘yin o‘ynab, turli yozishmalar bilan band bo‘lib, vaqtini behuda sarflaydi.

Yaqinda shahar markazidagi kitob do‘konlaridan birida bo‘ldim. Do‘konda badiiy, tarixiy, diniy, ilmiy, bolalar uchun kitoblar bo‘lib, ular turiga mos qilib alohida bo‘limlarga joylashtirilgan. Tarixiy kitoblar qatorida o‘zimni o‘tmishga tushib qolganday, badiiy kitoblar orasida ko‘z oldimda har xil obrazlar gavdalanganday, rasmli kitoblar qatorida esa bolalar dunyosiga, sirli mamlakatga tushib qolganday his qildim. Kitob kishini vaqt va makonning istalgan nuqtasiga olib borishga qodir. Faqat u bilan oshno bo‘lish kerak.

Kitob do‘konida xaridorlar bilan gaplashdim. Ularning fikricha, eng ko‘p sotiladigani jahon adabiyoti va diniy asarlar ekan. Chet tilini o‘rganuvchilar uchun grammatikaga oid kitoblar ham xaridorgir bo‘lib, bunday kitoblarni asosan maktab o‘quvchilari va talabalar sotib olmoqda.

Bugun ko‘pchilik yoshlar til o‘rganish va dunyo ko‘rishni istaydi. Ammo til o‘rganish bilan birga badiiy asarlar ham o‘qib turish kerak. Chet tilida ravon gapirayotgan yoshlardan o‘zbek adiblari yoki jahon adabiyoti durdonalaridan xabardorligini so‘rasangiz, ko‘pchiligi o‘qimaganini aytishadi.

Yoshlarni kitob o‘qishga qiziqtirish uchun tanlovlar o‘tkazilyapti. Tanlov g‘oliblariga qimmatbaho sovg‘alar berilyapti. Joylarda targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Shahrimiz ko‘chalarida ham kitob javoniga o‘xshash kichik qurilmalar paydo bo‘lyapti. Bunday qurilmalarda joylangan kitoblar mutlaqo bepul bo‘lib, kitobni o‘qigach, qaytarib joyiga qo‘yib ketish lozim. Bu ham odamlarni kitobga qiziqtirish uchun ezgu harakatdir.

**Madina IRISOVA,**
**Samarqand davlat chet tillar instituti xalqaro jurnalistika yo‘nalishi talabasi.**

# Samarqandda “Alashning asl arslonlari” ko‘rgazmasi ochildi

**O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyida Qozog‘iston Respublikasi markaziy davlat muzeyining "Alash" arboblarining merosini targ‘ib etishga bag‘ishlangan «Alashning asl arslonlari» deb nomlangan ko‘chma ko‘rgazmaning ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.**



Ko‘rgazmada bugungi va kelajak avlodlar uchun xalqlarimiz tarixining eng fojiali davri - 1937-1938-yillardagi qatag‘on suronlarini yodda tutish muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlandi.

- Alash O‘rda – qozoq xalqining milliy ozodlik kurashiga rahbarlik qilgan milliy partiya va muxtor hukumat bo‘lib, ushbu partiyaga 1917-yilda asos solingan, - deydi Qozog‘iston Respublikasi markaziy davlat muzeyi ilmiy xodimi Nazgul Asilbekova. — Ammo ko‘p o‘tmay muxtoriyat va uning namoyandalari bolsheviklar ta’qibiga uchragan. Bu ko‘rgazma O‘zbekistonda o‘tkazayotgan birinchi tadbirimiz emas. Birinchi ko‘rgazmamiz 2023-yil 4-oktabr - O‘zbekistonda qatag‘on qurbonlari xotirlanadigan kuni o‘tkazilgan. Ushbu ko‘rgazmalar "Alash" harakati arboblari merosini targ‘ib etish, shuningdek, ikki qardosh xalqlar o‘rtasida xalqaro hamkorlik va madaniy aloqalarni mustahkamlash maqsadida tashkil etilmoqda.

15-noyabrgacha davom etadigan ko‘rgazmada Alash O‘rda faoliyatida muhim o‘rin tutgan Ahmet Baytursinov, Alixon Bukeyxonov, Mirjaqib Dulatov, Muhammadjon Tinishpayev, Mustafo Cho‘qay, Saken Seyfullin, Xalil Do‘smuhammedov, Mag‘jon Jumaboyev kabi jadidlarning muhim arxiv hujjatlari namoyish etiladi.

**Bekzod MUSURMONOV.**

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

**MUASSIS:** Samarqand viloyati hokimligi

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

*Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 427 nusxada chop etildi. Buyurtma 600. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2*

***Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.***

**QABULXONA:** (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E’LONLAR:** (66) 233-91-56
**BO‘LIMLAR:** (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

**MANZILIMIZ:** 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
**Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:** G‘.HASANOV.
**Navbatchi:** G.MO‘MINOVA.
**Sahifalovchi:** B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda